

BO'LAJAK TARBIYACHILAR VA BOLALAR MUNOSABATLARINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Bisenbaeva A.Q.

stajyor-o'qituvchi, NDPI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17231467>

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalari talabalarini kasbga tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar olib borilgan va yoshlarimiz bundan samarali foydalanib kelmoqda. Jumladan, maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalariga ham o'z kasbining mohir ustasi bo'lishi uchun nufuzli ishlar olib borilmoqda. Ular nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy bilim va ko'nikmalarni egallaydilar va o'z kasbga yo'naltiriladilar. Talabalar ularga qo'yiladigan talablardan kelib chiqib o'z faoliyatlarini boshlaydilar. Shu o'rinda tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan talablarga aniqlik kiritadigan bo'lsak:

Pedagog olimlar F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N. A'zamova tarbiyachi o'z kasbining mohir ustasi bo'lish uchun maxsus tayyorgarlik ko'rishi kerak. U quyidagi shartlarga amal qilishi kerakligini ko'rsatgan:

1. Pedagog yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori ma'lumotli, kerakli bilimlarni egallab, kerakli adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg'or tajribali pedagoglarning tajribasini o'rganib, o'z ishiga tatbiq eta oladigan bo'lishi; . Pedagog bolalarni kuzata oladigan, ularning xulqi, xatti-harakati sabablarini to'g'ri tahlil qilib, unga ijobiy ta'sir etuvchi vositalarni topa olishi;

3. Yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalardan xabardor qilish uchun pedagogning nutqi ravon, aniq, mantiqiy, ixcham bo'lishi lozim. Ta'lim berishda texnikaviy vositalardan samarali foydalana olishi kerak. Bolalar bilim, malaka,

ko'nikmalarni yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun ularni faollashtirib savollardan foydalanishi;

4. Tarbiyachi o'ziga yuklangan vazifani bajarish uchun bolalarda o'sha faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'ota olish, ularning diqqatini jalb qilib, faolligini o'stirish, bolalarning xulqini, xatti-harakatini haqqoniy baholay olishi;

5. Har bir faoliyat uchun kerakli materiallarni oldindan tayyorlab qo'yishi;

6. Kun tartibini to'g'ri tashkil eta bilishi, bolalar jamoasiga undagi har bir a'zoni e'tiborga olgan holda rahbarlik qila bilish;

7. Bolalarning ruhiy va jismoniy holatini aniqlay bilishi va buni bolalar bilan amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarida e'tiborga olishi;

8. Tarbiyachi ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlar, uchrashuvlar o'tkazib, axborot almashtirib turishi;

9. Pedagog bolalarga nisbatan xayrixohlik munosabatda bo'lishi, har bir bola uchun qulay sharoit yaratishi, xafa bo'lsa ovuntira olishi;

10. Kun tartibida olib borgan ta'lim-tarbiya ishini tahlil qila bilishi va uni yanada yaxshilash yo'llarini topa olishi kerak.

Eng muhimi - tarbiyachi bolalarga ishonch bilan qarashi, ularning mehnatsevarligi, mustaqilligi, tashabbuskorligini to'g'ri taqdirlashi va mustaqil faoliyat qilishlari uchun imkoniyat yaratishi kerak [1. 106].

Yuqorida ko'rsatilgan talablardan kelib chiqib, bo'lajak tarbiyachi bolalar bilan munosabat olib borganda pedagogik odob me'yorlariga amal qilishi, nutq madaniyati, tashqi imiji, ularning bolalar bilan oson til topishlari pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlaydi.

Bolalarga ta'lim-tarbiya berishda eng avvalo ularni ijtimoiy hayotga, atrofdagilar bilan faol munosabatga tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Ba'zi pedagog-tarbiyachilar, tarbiyalanuvchilarga qattiqqo'l bo'lish kerak deb hisoblaydi. Bu fikr noto'g'ri, chunki pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, bolalar bilan yaqin bo'lib, mehribonlik bilan muomala qilish ko'proq ijobiy natija beradi.

Pedagog-tarbiyachilar yangi pedagogik texnologiyalarni uzluksiz egallab borishlari kerak. Yangi metod va texnologiyalarni izlab topish, ularni o'z o'rnida qo'llash muhim ahamiyatga ega. Agar pedagog-tarbiyachilar ta'lim-tarbiyaning yangi metod, usul va texnologiyalarini o'rgansa hamda o'z faoliyatida uzluksiz qo'llay olsa ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlay oladi.

Pedagog-tarbiyachilar tarbiyaviy ishlarni olib borishda nafaqat tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini, balki ularning individualligini ham hisobga olishlari zarur. Bolalar o'z xulqi, mayllari bilan ajralib turadi. Ba'zi tarbiyalanuvchilarga ishonch bildirib, iltimos bilan murojaat qilganda topshirilgan ishni g'ayrat bilan, e'tibor bilan bajarsa, boshqalarga esa buyruq tovushlar uyg'unligi tezroq ta'sir etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.F.R.Qodirova, Sh.Q-Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova Maktabgacha pedagogika, darslik. Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019. - 106 b.